



Volume 2, Issue 2(15), 2023

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Tugalov Farkhod Karshibayevich, PhD

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich, PhD

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali

Журнал “Физико-технологического образование”

“Journal of Physics and Technology Education”

Indexed By:



Published By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>
Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2023-04-25

BADIIY ASAR SYUJETI VA KOMPOZITSIYASI VA BADIIY ASAR TAHLILINING ASOSIY TAMOYILLARI

Rahimov Azizbek Yaxshiboyevich¹, Po’latov Elzod O’ktam o’g’li²

¹JDPU Texnologik ta’lim va tasviriy san’at fanlari kafedrasi o’qituvchisi

²Rangtasvir (dastgohli) yo’nalishi 3-kurs talabasi

e-mail:rahimovazizbek09@gmail.com

Annotasiya. Badiiy asardagi qismlar, obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g’oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi, ularning tasvirdagi mezon va muvofiqligi kompozitsiya deb ataladi.

Kalit so’zlar: Kompozitsiya va syujet, mavzu va g’oya, tematika, g’oyaviy-tematik, obraz

Annotation The arrangement of parts, images and artistic tools in a work of art in an order that serves a certain ideological purpose, their criteria and compatibility in the image is called composition.

Key words: Composition and plot, theme and idea, thematic, ideological-thematic, image.

Аннотация. Расположение частей, образов и художественных средств в художественном произведении в порядке, который служит определенной идейной цели, их критерии и сочетаемость в образе называется композицией.

Ключевые слова: Композиция и сюжет, тема и идея, тематика, идейно-тематика, образ.

Kompozitsiya asosiy badiiy vositalardan biri bo’lib, u yozuvchining g’oyaviy maqsadi asosida tanlangan hayotiy voqyea-hodisalarni tasvirlashga, personajlarning o’zaro aloqa va munosabatlarini izchil bayon etishga xizmat qiladi. Agar asarda yozuvchi maqsadi, g’oyaviy pozitsiyasi izchil va aniq bo’lmasa, kompozitsiyasi mukammal chiqmaydi. Shuning uchun badiiy asardagi har bir detal, epizod yoki vosita doim biror narsaga xizmat qiladi, bir-biri bilan uzviy bog’langan bo’ladi. Ayniqsa, asar kompozitsiyasida materiallarning izchillik bilan joylashtirilishi muhim ahamiyatga egadir. Materiallarning joylashtirilishini bilish esa yozuvchining badiiy mahoratini bilishga yordam beradi. Badiiy asarda materiallarning izchillik bilan tartibli joylashtirilishidan tashqari, ularning hajmiga ham ahamiyat beriladi. Badiiy asarda ayrim materiallar asosiy, ayrimlari ikkinchi darajali planda beriladi, ba’zi obrazlarning tashqi qiyofasi, o’y-fikr va his-tuyg’ulari, yashash sharoitlari batafsil, ba’zilariniki esa qisqa yoritiladi.

Epik asarlarda materialni qismlarga bo’lish prinsipi muhim o’rin tutadi. Ko’pgina epik asarlar qismlarga, qismlar esa, o’z navbatida, yana bilimlarga

ajraladi. Albatta, yozuvchi materialini qism va bo’limlarga bolishda ma’lum bir maqsadni ko’zda tutadi. Asarni qism va bo’limlarga bo’lish masalasi avtorning turmush hodisalarini aks ettirish xarakteriga, asarning janr xususiyati va unda qo’yilgan problemaga, yozuvchining badiiy uslubiga bog’liqdir. Chunonchi, «Qutlug’ qon» romanining kompozitsiyasi uning mazmuniga mos bo’lib, Oybekning yuksak badiiy mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi. «Qutlug’ qon» o’n sakkiz bobdan iborat. Har bobning o’zi hikoya va epizodlardan tashkil topgan hamda g’oyaviy mazmuni jihatidan o’zaro uzviy bog’langan.

Poetik, epik va dramatik asar kompozitsiyasi bir-biridan farq qiladi. Alisher Navoy «Farhod va Shirin» dostonida o’zi yashagan davr-XV asr hayoti lavhalarini aks ettirar ekan, unda xalqning tinchlik, farovon turmush, obodonchilik haqidagi orzu-umidlarini ifodalash uchun dostonni kirish qismidan tashqari 53 bobga ajratadi. Bu boblar bir-biri bilan uzviy bog’lanib, bir butunlikni tashkil etadi. Shoir bu boblarda Farhod va Shirinning boshidan kechirgan sarguzashtlarini, hayoti va ezgu niyat yo’lida olib borgan kurashlarini yoritish bilan dostonning g’oyaviy mazmunini ochadi. Natijada doston syujeti murakkab, tematikasi keng va mazmuni rang-barang asar bo’lsa ham, uning kompozitsiyasi asar syujeti qurilishining izchilligini ta’minlagan.

Shunday qilib, kompozitsiya asar mazmunini eng mukammal tusda reallashtiruvchi shakliy kategoriya bo’lib, ijodiy metod, adabiy yo’nalish, oqim va ularga xos ijod prinsiplari bilan bog’liq holda namoyon bo’ladi. Shu nuqtai nazardan hozirgi adabiyotga nazar tashlasak, kompozitsiya tushunchasi bir qancha usul va vositalar hisobiga boyidi. Masalan, hozirgi adabiy asarlar qurilishida qo’llaniladigan avtor xarakteristikasi, ichki va tashqi monolog, dialog, xotira, lirik chekinish, ruhiy iztirob, tush ko’rish, o’z-o’zini baholash kabi usullar shular jumlasidandir.

Badiiy asarlarning bevosita mazmunini tashkil etgan, o’zaro bog’langan va rivojlanib boruvchi hayotiy voqyealar sistemasi syujet deb ataladi. Syujet xarakter bilan uzviy bog’liq bo’lib, badiiy ijodda muhim o’rin tutadi. Syujet badiiy ijodning barcha tur va janrlarida mavjud. Syujet xarakter bilan voqyealar o’rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Haqiqatdan, syujet personajlar harakati tufayli shakllanadi. Se’riy asarda, ayniqsa, kichik she’riy asarda syujet prozaik asarga qaraganda yashirinroq bo’ladi.

Syujet ekspozitsiya, tugun, voqyealar rivoji, kulminatsiya va yechim kabi elementlardan tashkil topadi. Bularning hammasi badiiy asar syujetining tarkibiy qismlari bo’lib, asar kompozitsiyasida muhim rol o’ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bivalseva M.V. Illyustriruem skazki s radostyu. / “Nachalnaya shkola”. №1 —2003. S. 59-62.
2. Vilde T.N. Illyusgirirotanie narodnmx skazok na urokax tematicheskogo risovaniya / “Nachalnaya shkola”. №1 — 2003. S. 57 - 59.
3. Golubeva I. Kniga i obraz. Formirovanie individualnogo xudojestvennogo yazja / jurnal “Iskusstvo v shkole”. 2009. № 3. S. 14 - 18.
4. Ibragimov A., Sulaymonov A. Kitobat san’atiga oid terminlarning izohli-illyustrativ lugati. - Toshkent: “Fan”, 2007. - 80 b.
5. Kamoliddin Behzod. Albom. Tuzuvchilar: E.Ismoshyuva, 3. Rahimova. - Toshkent: “San’at” nashriyoti, 2000. -40 b.
6. Madraimov A. O’zbekiston miniatyura san’atini o’rganish muammolari / J. “San’at”. 2015,2-son. - 25 — 27-6.
7. “2011-2015 yillarda madaniyat va istiroxat bog’larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faolyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasing 2010 yil 29 dekabrdaqi 322 son qarori /<http://www.lex.uz/>
8. Jirnov A.D. Iskustvo parkostroeniya. L’vov,1977. -varoq 28.